

BADIY O'QISH VOSITALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sharof Rashodov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası assitenti

Yakubova Safiya Hamdamovna

E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Tel: +998889300021

Turayeva Zarnigor Axmad qizi

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'TVA yo'nalishi 1-bosqich talabasi

turayevazarnigor37@gmail.com

Tel: +998771857407

Anotatsiya: Ushbu ishda badiiy o'qish jarayonida qo'llaniladigan asosiy vositalarning mazmuni, turlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Matnda nutqiy, ko'rgazmali, texnik, analitik va hissiy-ta'siriy vositalarning badiiy matnni chuqur anglashga ko'rsatadigan ta'siri izohlangan. Shuningdek, ifodali o'qishning tarkibiy jihatlari -intonatsiya, diktsiya, pauza va tembrning o'quvchining estetik idroki va nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Badiiy o'qish vositalari kompleks qo'llanganda o'quvchilarda matnni anglash, tasavvur qilish va his etish qobiliyati kuchayishi ta'kidlangan. Ish ta'limiy amaliyotda mazkur vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Badiiy o'qish, ifodali o'qish, nutq vositalari, diktsiya, intonatsiya, pauza, tembr, ko'rgazmali vositalar, texnik vositalar, audio yozuvlar, video materiallar, tahlil, syujet chizmasi, qahramon xarakteri, dramatzatsiya.

Abstract: The work highlights the content, types and significance of the basis laid in the reading process in the educational process. The text explains the impact of speech, visual, technical, analytical and emotional-affective material on the deep understanding of the text. The role of movement, expressive reading movements - intonation, diction, pause and timbre in the aesthetic perception of the student and the observation of speech culture is analyzed. It is emphasized that when the process of artistic reading is used in a complex way, students' understanding, imagination and perception of the text are enhanced. The work is significant in terms of controlling the use of this material in educational practice.

Keywords: Literary reading, expressive reading, speech tools, diction, intonation, pause, timbre, visual aids, technical means, audio recordings, video materials, analysis, plot outline, character characterization, dramatization.

Аннотация: В данной работе рассматриваются содержание, виды основных средств, используемых в процессе художественного чтения, и их значение в образовательном процессе. В тексте объясняется влияние речевых, изобразительных, технических, аналитических и эмоционально-аффективных средств на глубокое понимание художественного текста. Также анализируются структурные аспекты выразительного чтения – интонация, дикция, паузы и тембр – в формировании эстетического восприятия и речевой культуры студента. Подчеркивается, что при комплексном использовании средств художественного чтения повышается способность студентов понимать, представлять и чувствовать текст. Работа значима тем, что направлена на повышение эффективности использования этих средств в образовательной практике.

Ключевые слова: Литературное чтение, выразительное чтение, речевые средства, дикция, интонация, пауза, тембр, наглядные пособия, технические средства, аудиозаписи, видеоматериалы, анализ, сюжетный план, характеристика персонажей, драматизация.

Badiiy o'qish adabiy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u badiiy matnning g'oyaviy-estetik mohiyatini ovoz orqali tinglovchiga yetkazish san'atidir. Ifodali o'qish jarayoni til, nutq, psixologiya, adabiyotshunoslik va pedagogika kabi fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Badiiy o'qish vositalari esa mazkur jarayonning asosiy texnik va estetik mexanizmlarini belgilaydi. Ular matn mazmunini ochish, obrazlar dunyosini jonlantirish, emotsional ohangni yetkazish va tinglovchi bilan ruhiy-psixologik aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi[3]. Mazkur maqolada badiiy o'qish vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanish mexanizmlari hamda badiiy matnning shakli va estetik mazmuni bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Badiiy o'qish — bu adabiy matnni nafaqat ovoz chiqarib o'qish, balki uni mazmunan his qilish, obrazlarni tasavvur qilish, muallif maqsadini anglash hamda tinglovchiga estetik zavq yetkazish jarayonidir. Ushbu jarayon samarali bo'lishi uchun o'quvchi turli metodik vositalardan foydalanadi. "Badiiy o'qish vositalari" tushunchasi asosan matnni anglash, ifodali o'qish, tahlil qilish va tinglovchi bilan muloqotni ta'minlashga xizmat qiluvchi texnik, nutqiy va didaktik vositalarni qamrab oladi. Badiiy o'qish vositalari — bu adabiy asarni fikran, hissiy va texnik jihatdan chuqurroq anglashga yordam beradigan metodlar majmui. Ular matn bilan ishlashni osonlashtiradi, o'qish jarayonini jonli qiladi va adabiy ta'sirchanlikni oshiradi.

Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O'quvchining matnni chuqur tushunishini ta'minlash;
- Asardagi g'oya, obraz va hissiyotlarni ochib berish;
- Ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish;

- Auditoriyada estetik qiziqish uyg'otish;
- Tahliliy fikrlashni rivojlantirish;

1.1. Nutq vositalari: Nutq vositalari badiiy o'qishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular matnning ohangdorligiga va ta'sirchanligiga bevosita ta'sir qiladi.

Diktsiya - So'zlarni aniq, ravon, burro talaffuz qilish. Diktsiya qanchalik toza bo'lsa, obrazlar shunchalik jonli eshitiladi.

Intonatsiya - Muallif kayfiyatini yoritishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Quvonchli sahna ko'tarinki ohang, g'amgin joy past va sokin ohang bilan ifodalanadi.

Pauza - Pauza matnni "nafas oldiradi". Uning to'g'ri qo'llanishi tinglovchining diqqatini jamlaydi.

Tembr - Ovozning rang-barangligi obraz yaratishda katta yordam beradi. Masalan, qahramonning g'azabi, xavotiri yoki quvonchi ovoz tembrida aks etadi.

Urg'u - nutqda biror so'z yoki bo'g'inni boshqalardan kuchliroq, balandroq yoki aniqroq aytish orqali ajratishdir. Urg'u gapning mazmunini to'g'ri yetkazish va tinglovchining e'tiborini kerakli joyga qaratish uchun xizmat qiladi.

Ovoz - insonning gapirganda, kuylaganda yoki his-tuyg'usini bildirayotganda chiqadigan tabiiy tovushidir. Ovoz har kimda o'ziga xos bo'ladi: kimdadir yumshoq, kimdadir jarangdor, boshqasida past yoki baland bo'ladi.

Pauza - nutq davomida qilinadigan qisqa to'xtash, ya'ni bir lahzalik tanaffus. Pauza fikrlarni ajratish, gap ohangini boshqarish va tinglovchiga aytilgan fikrni anglash imkonini berish vazifasini bajaradi.

Mimika - inson yuzidagi ko'z, qosh, lab va boshqa mushaklar harakati orqali namoyon bo'ladigan tuyg'u va kayfiyat ifodasidir. Kulish, jahllanish, ajablanish, hayrat, xursandchilik kabi holatlar mimika orqali ko'rinadi.

1.2. Ko'rgazmali vositalar: Ko'rgazmali vositalar asar qahramonlari va voqealarini tasavvur qilishni osonlashtiradi.

- Asar qahramonlari tasvirlangan suratlar;
- Sahna maketi yoki rasm chizilgan manzaralar;
- Muallifning bioportreti;
- Mavzuga oid predmetlar (milliy buyumlar, tarixiy narsa, tabiat unsurlari)
- Bu vositalar adabiy matnni "ko'rinarli" qilib beradi.;

1.3. Texnik vositalar: Zamonaviy dars jarayonida texnik vositalar badiiy o'qishni yanada jonlantiradi.

- Audio yozuvlar (ovozli kitoblar, diktorlardan namunalar);
- Video lavhalar (asarning ekranizatsiyasidan parchalar);
- Slayd va taqdimotlar;

Texnik vositalar o'quvchi tasavvurini kengaytiradi va matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

1.4. Analitik vositalar: Bular o'quvchining tahliliy fikrini rivojlantiradi. Analitik vositalar o'quvchiga matnni chuqur "ochishga" yordam beradi.

- Matndan savollar tuzish;
- Qahramonlarni taqqoslash jadvallari;
- Syujet sxemasi;
- Asar g'oyasini grafik ko'rinishda aks ettirish;

1.5. Hissiy-ta'siriy vositalar: Bu vositalar o'quvchilarning adabiyotga hissiy munosabatini kuchaytiradi.

- Rollarga bo'lib o'qish;
- Dialoglarni dramatizatsiya qilish;
- O'quvchilarning sahnalashtirilgan chiqishlari;
- Musiqa bilan uyg'un o'qish

1. Matnni tushunishni chuqurlashtiradi: Har bir vosita asarni bir necha qatlamda anglashga imkon beradi: voqeaviy, obrazli, hissiy, falsafiy.

2. O'quvchilar nutqini rivojlantiradi: To'g'ri intonatsiya, aniq talaffuz va ifodalilik o'quvchi nutq madaniyatini shakllantiradi.

3. Adabiyotga qiziqishni oshiradi: Ko'rgazmali va texnik vositalar darsni jonlantirib, adabiyotga muhabbat uyg'otadi.

4. Mustaqil fikrlashni faollashtiradi: Analitik vositalar orqali o'quvchi qahramon xarakterini yecha oladi, g'oya va muallif pozitsiyasini topa oladi.

5. Estetik tarbiyani kuchaytiradi: Badiiy o'qish o'quvchida go'zallikni his qilish, badiiy tafakkur va didni rivojlantiradi. [2].

Badiiy o'qish vositalari adabiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ular matnni mukammal anglash, uning ta'sirchanligini his etish va auditoriyaga yetkazish uchun xizmat qiladi. Nutqiy, ko'rgazmali, texnik, analitik va hissiy vositalarning kompleks qo'llanilishi o'qish jarayonini yanada mukammal qiladi. Bu vositalar yordamida o'quvchi asarni nafaqat tushunadi, balki uni his qiladi, o'z dunyoqarashini boyitadi va badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Badiiy o'qish vositalari murakkab nutqiy, psixologik va estetik tizimdan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyaga ega. Ovoz, intonatsiya, ritm, pauza, urg'u, diksiya, artikulyatsiya, jest va mimika badiiy o'qishning asosiy vositalari sifatida matnning ichki va tashqi mazmuniga mos holda qo'llanadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular matnni tinglovchiga oddiy nutq sifatida emas, balki badiiy-estetik hodisa sifatida yetkazadi. Badiiy o'qish vositalari orqali badiiy asarning ruhiy-estetik mohiyati jonlanadi, obrazlar tiriklashadi va tinglovchining estetik didi shakllanadi. Shuning uchun badiiy o'qish vositalarining ilmiy o'rganilishi nafaqat nutq madaniyati, balki adabiy ta'limning samaradorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy o'qish zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar nutq madaniyatini shakllantirish, badiiy matnni estetik idrok qilish va obrazlarni fikran tasavvur qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shunga qaramay, bugungi kunda badiiy o'qish jarayonida bir qator ilmiy, metodik va psixologik muammolar mavjud bo'lib, ular o'quvchi tafakkuri va nutq madaniyatining rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada badiiy o'qish jarayonining asosiy muammolari ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi[2].

Badiiy o'qishning eng asosiy muammolaridan biri – o'quvchilarda nutq texnikasining yetarlicha shakllanmaganligidir. Intonatsiya, pauza, urg'u, sur'at va diksiya kabi og'zaki nutq elementlari bo'yicha ko'nikmalar yetishmasligi matnning badiiy-estetik qiymatini tinglovchiga to'liq yetkazishga xalaqit qiladi. Nutqning monotoniya bilan o'qilishi, mantiqiy urg'ularning noto'g'ri qo'yilishi, ritmning buzilishi badiiy o'qish jarayonini mazmunsizlashtiradi. [3]. Lingvistik tahlilning zaifligi ham muammo sifatida ajraladi. O'quvchilar asarda qo'llanilgan epitet, metafora, tashbeh, hiperbola kabi tasviriy vositalarning mazmuniy yukini anglamagan holda matnni texnik tarzda o'qib berishga moyil bo'ladi. Bunday hollarda matnning badiiy qatlamlari, g'oyaviy zamir va obrazlarning psixologik holati o'z ifodasini topmaydi. Badiiy o'qishda o'quvchining hissiy kechinma va obrazga kirish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Ammo ko'plab o'quvchilar matnni emotsional jihatdan his qilmasdan, uning ruhiy jarayonlarini idrok qilmasdan o'qiydilar. Bu esa "mexanik o'qish" fenomeniga sabab bo'ladi. [6]. Psixologlar bu holatni o'quvchining matn bilan "emosional rezonans" hosil qila olmasligi bilan izohlaydilar. Obrazga kirishning sustligi badiiy o'qishning eng katta muammolaridan biri bo'lib, u tinglovchi bilan ruhiy aloqa o'rnatilishiga to'sqinlik qiladi. Pedagogik jarayonda badiiy o'qishning o'rganilishi ko'pincha yuzaki, faqat o'qish texnikasiga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar ko'pincha matnni yod olishga e'tibor qaratadilar, ammo matnni tahlil qilish, obrazlarni his qilish, muallif niyatini anglash kabi jarayonlar yetarli darajada o'rgatilmaydi. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, ifodali o'qish bo'yicha maxsus mashqlar tizimining yetishmasligi badiiy o'qish jarayonini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, dars jarayonida vaqtning qisqaligi, asarlarning murakkabligi, o'quvchilar orasidagi individual farqlar badiiy o'qishni to'liq shakllantirishga imkon bermaydi. Badiiy o'qishning pedagogik tizimi metodik jihatdan yanada takomillashtirilishga muhtoj. Zamonaviy axborot oqimi sharoitida o'quvchilarning badiiy matnlarga bo'lgan qiziqishi pasaygan. Badiiy o'qishga bo'lgan motivatsiyaning sustligi, o'qish madaniyatining yetarli emasligi, yoshlar ongida badiiy asarlarni idrok etish ko'nikmasining shakllanmaganligi muammolarning kuchayishiga sabab bo'ladi[3]. Ko'plab o'quvchilar badiiy o'qishning estetik ahamiyatini tushunmay, uni faqat "vazifa" sifatida bajaradilar. Madaniy muammo sifatida oilada o'qish madaniyatining sustligi ham ko'rsatib o'tiladi. Badiiy nutqni eshitish, tinglash,

tahlil qilish madaniyati oilaviy muhitda shakllanmaganda, maktabdagi mashg'ulotlar samarasi ham cheklangan bo'ladi. Raqamli texnologiyalar keng rivojlangan sharoitda matn bilan bevosita ishlash ko'nikmalari zaiflashib bormoqda [5]. Vizual kontentning ko'pligi, qisqa matnlar ustunligi, audio-video shakllarning tezkorligi badiiy o'qishning chuqur idrok talab etuvchi jarayoniga raqobatchi bo'lmoqda. Bu esa o'quvchilar ongida badiiy o'qishni sekin, harakatsiz, "zerikarli" jarayon sifatida qabul qilishga olib keladi. Shuningdek, texnologiyalar nutq madaniyatining tabiiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda: ijtimoiy tarmoqlarda noodatiy talaffuz, qisqartmalar, ohang yetishmasligi badiiy o'qish texnikasi bilan mos kelmaydi. Badiiy o'qish jarayonidagi muammolar lingvistik, psixologik, metodik, madaniy va texnologik omillar bilan bog'liq murakkab tizimni tashkil etadi. Ularni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida ifodali o'qishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish, maxsus mashqlar tizimlarini takomillashtirish, motivatsiyani kuchaytirish, badiiy matnlarni tahlil qilishning zamonaviy metodikalarini joriy etish zarur. Shuningdek, o'quvchilarda estetik didni, adabiyotga mehrni, badiiy idrok madaniyatini shakllantirish badiiy o'qish sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A., Yo'ldoshev Q. Adabiy ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Qosimova M., Savrieva O. Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya.
3. To'xliiev B. Adabiyot nazariyasiga kirish. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
4. Shomusarov A. Badiiy matnni o'qish va tahlil qilish asoslari. — Toshkent: Ma'naviyat.
5. G'ulomov A. O'qish darslari metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi.
6. Rasulov R. Nutq madaniyati va ifodali o'qish. — Toshkent: O'zbekiston.
7. Yo'ldosheva D. Adabiy tahlil asoslari. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.